

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PARVOZLAR XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH DAVLAT  
INSPEKSIYASI BOSHIG'INING  
BUYRUG'I**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMOVIY HUDUDIDA FUQARO VA EKSPERIMENTAL  
AVIATSIYASINING PARVOZ QILISH AVIATSIYA QOIDALARIGA (O'ZR AQ-91)  
O'ZGARTIRISHLAR VA QO'SHIMCHA KIRITISH HAQIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 17-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat  
raqami 1723-9]**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyundagi PQ-3029-son "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 12-maydagi 283-son "O'zbekiston Respublikasida fuqaro havo kemalari bilan sodir bo'ladigan aviatsiya halokati va insidentlarni surishtirish qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2007-yil 12-sentabrdagi 141-son buyrug'i (ro'yxat raqami 1723, 2007-yil 29-sentabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 41-42-son, 420-modda) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro va eksperimental aviatsiyasining parvoz qilish aviatsiya qoidalariga (O'ZR AQ-91) ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Boshliq T. ULJAYEV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 11-yanvar,  
106-N-son

O'zbekiston Respublikasi Parvozlari  
xavfsizligini nazorat qilish davlat  
inspeksiyasi boshlig'ining 2018-yil 11-  
yanvardagi 160-N-son buyrug'iga  
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro va eksperimental aviatsiyasining parvoz qilish  
aviatsiya qoidalariga (O'ZR AQ-91) kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha**

1. 160-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"160. O'zbekiston Respublikasi FAsi parvozlarning meteorologik ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmat markazi tomonidan Xalqaro FAsi to'g'risidagi Konvensiyaning 3-ilovasiga (1944-y.), JMT (Jahon meteorologik tashkiloti)ning texnik reglamentiga, O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro va eksperimental aviatsiyasi parvozlarning meteorologik ta'minoti" aviatsiya qoidalariga (O'ZR AQ-180), O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarining foydalanishga yaroqlilik normalari" aviatsiya qoidalariga, har bir muayyan aeroport uchun ishlab chiqilgan parvozlarning meteorologik ta'minoti bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq tashkil etiladi."

2. 555-bandda "tabiatni" degan so'z "ekologiya va atrof-muhitni" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. 730-band quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirilsin:

"Ushbu talablar paraplanlar, delpaplanlar, motodeltaplanlar va motoparaplanlar ekspluatantlariga nisbatan tatbiq etilmaydi."

4. 731-banddagi "(kichik samolyotlar, paraplanlar, delpaplanlar, motodeltaplanlar, motoparaplanlar, delpalyotlar va h.k.)" degan so'zlar "(kichik samolyotlar, delpalyotlar)" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

5. 757-banddagi "Delpaplan, paraplan, motodeltaplan, motoparaplan, deltaletlarda" degan so'zlar "Delpaplan, paraplan, motodeltaplan, motoparaplanda" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

6. 789<sup>3</sup>-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"789<sup>3</sup>. UUQlarining parvozlari yerdagi boshqarish stansiya monitori orqali (boshqarish pultidan) doimiy nazorat qilgan holda oddiy meteosharoitlarda amalga oshiriladi."

7. 1059-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1059. Komissiya yetib kelguniga qadar yerdagi va bortdagi magnitofonlarni ochish va eshitish, bort o‘zi yozgichlarini ochish va yozuvlarini rasshifrovka qilish ta’qiqlanadi va faqat komissiya raisining yoki komissiya raisi o‘rinbosarining qaroriga muvofiq uning ixtiyoriga topshirilgandan so‘ng darhol amalga oshirilishi mumkin.”.

8. Mazkur o‘zgartirishlar va qo‘shimcha O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi hamda “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi bilan kelishilgan.

**Mudofaa vaziri A. AZIZOV**

2018-yil 11-yanvar

**Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi Bosh direktorining v.v.b.  
K. ARIPOV**

2018-yil 11-yanvar

**“O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi Bosh direktori U. ROZUQULOV**

2018-yil 11-yanvar

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.01.2018-y., 10/18/1723-9/0585-son)*